

**"UZBAT A.O." QK AJ tomonidan topshirilgan "Savdo va reklama asbob-uskunolari uchun turtkich" sanoat namunasiga berilgan SAP 01261-sonli patentni haqiqiy emas deb e'tirof etish haqidagi ASA 2017 006 sonli apellyasiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan 2017 yil 27 iuyldagi  
APELLYaSIYa KENGASHINING QARORI**

I. SAP 01261-sonli patent bo'yicha "Savdo va reklama asbob-uskunolari uchun turtkich" sanoat namunasi Sanoat namunalari davlat reestrda 2014 yil 22 sentyabrda Belyakov Andrey Pavlovich nomiga 2013 yil 5 dekabr ustuvorligi bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

II. Apellyasiya topshirgan shaxs qo'yilgan talablarni to'liq qo'llab-quvvatladi.

Bayon qilingan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda, apellyasiya topshirgan shaxs ko'rsatib o'tilgan sanoat namunasiga berilgan SAP 01261-sonli patentning qonuniy kuchga ega emas deb e'tirof etilishini so'raydi.

III. Topshirilgan apellyasiya bilan belgilangan tartibda tanishtirib chiqilgan patent egasi o'zining yozma javobi va og'zaki chiqishida apellyasiya da'volariga nisbatan noroziligini izhor etdi.

Yuqorida bayon etilganlar asosida patent egasi Apellyasiya kengashidan apellyasiyaning rad etilishini so'raydi.

IV. Apellyasiyada qo'yilgan masalalarning mohiyati bo'yicha Apellyasiya kengashiga taqdim etilgan o'z fikr-mulohazalarida ekspertiza, jumladan, qabul qilingan qarorning haqqoniyligiga dalillar keltirdi.

V. Ish bo'yicha materiallarni o'rganib chiqqach, Apellyasiya kengashi apellyasiya topshirgan shaxsning dalillarini asossiz deb topadi.

Sanoat namunasining patentga layoqatligini baholashda O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi 2008 yil 31 iyuldagi Qonuni (bundan keyin - Qonun) va "Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (2004 yil 21 aprelda 11-son bilan ro'yxatga olingan) (bundan keyin -

Qoidalar) huquqiy baza vazifasini o'tadi.

SAP 2013 0155-sonli talabnoma bo'yicha "Savdo va reklama asbob-uskunolari uchun turtkich" sanoat namunasining ilmiy-texnik ekspertizasi Qonunning 8-, 20- va 23-moddalariga muvofiq amalga oshirildi.

SAP 2013 0155-sonli talabnoma bo'yicha buyumning ilmiy-texnik ekspertizasini va qidiruv ishlarini olib borishda muhim alomatlarining majmui bo'yicha o'xshash sanoat namunalari topilmadi va ilmiy-texnik ekspertiza natijalari bo'yicha sanoat namunasiga SAP 01261-sonli patent berildi.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asoslangan holda, Apellyasiya kengashi

**QAROR QILADI:**

1. "Savdo va reklama asbob-uskunolari uchun turtkich" sanoat namunasiga berilgan SAP 01261-sonli patentning haqiqiy emas deb e'tirof etilishi to'g'risidagi apellyasiya qoniqtirilmasin.

2. "Savdo va reklama asbob-uskunolari uchun turtkich" sanoat namunasiga berilgan SAP 01261-sonli patent o'z kuchida qoldirilsin.